

1-MAVZU. INTERNETDAGI FIRIBGARLIK VA ALDOVLARDAN HIMOYALANISH

Qisqacha mazmuni

Ushbu mavzuda quyidagilar o'rganiladi:

- soxta akkauntlar, “giveaway”lar, bepul o'yin mablag'lari, promokodlar va “tez boyish” sxemalari;
- firibgarlikning asosiy belgilari: shoshiltirish, qo'rqitish va haddan tashqari jozibali takliflar;
- noma'lum havolalar, fayllar va botlar orqali tarqaladigan xavflar;
- shubhali holatlarda to'xtash, tekshirish va ishonchli kattalarga murojaat qilish usullari.

Internet — katta imkoniyatlarga ega qiziqarli olam. U orqali biz bilim olamiz, o'yin o'ynaymiz, muloqot qilamiz va foydali ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Shu bilan birga, internetda ehtiyotkorlik talab qiladigan holatlar ham bor. Firibgarlar ko'pincha foydalanuvchining ishonchi, qiziqishi yoki shoshqaloqligidan foydalanishga harakat qiladi.

Keling, internetda ko'p uchraydigan 5 ta xavf va ulardan himoyalaniish yo'llarini ko'rib chiqamiz.

1. Zararli dasturlar

Zararli dasturlar odatda “bepul o'yin”, “qo'shimcha imkoniyat”, “bonus”, “promokod” yoki “tezkor yutuq” niqobi ostida tarqaladi.

Foydalanuvchi “foydali fayl” deb yuklab olgan narsa aslida telefon yoki kompyuterga zarar yetkazishi, ma'lumotlarni o'g'irlashi yoki qurilma ishini sekinlashtirishi mumkin.

2. Tovlamachi dasturlar

Tovlamachi dasturlar foydalanuvchining fayllarini yopib qo'yadi va ularni qayta ochish uchun pul talab qiladi.

Bunday holatda odam o'z hujjatlari, rasmlari yoki boshqa muhim fayllariga kira olmay qolishi mumkin.

3. Elektron tuzoqlar va soxta akkauntlar

Ijtimoiy tarmoqlarda ayrim firibgarlar o'zini mashhur bloger, tanlov tashkilotchisi yoki sahifa boshqaruvchisi sifatida ko'rsatadi.

Ular sizga "giveaway"da yutganingizni aytib, login, parol, telefon raqami yoki SMS kodni so'rashi mumkin.

Ehtiyot bo'ling: bunday xabarlar ko'pincha shaxsiy ma'lumotlaringizni qo'lga kiritish uchun tuzilgan elektron tuzoq bo'ladi.

4. Yolg'on axborot va "tez boyish" takliflari

"Bir kunda katta pul ishleng", "hech qanday mehnatsiz daromad qiling", "bu dasturni yuklab oling va boyib keting" kabi takliflar ko'pincha aldov bo'ladi.

Bunday xabarlarning maqsadi — sizni tez qaror qabul qilishga majbur qilish va noto'g'ri harakatga undashdir.

5. Shaxsiy ma'lumotlarga tahdid

Noma'lum havola, soxta sayt yoki zararli fayl orqali parol, telefon raqami, shaxsiy suratlar yoki boshqa ma'lumotlar o'g'irlanishi mumkin.

Shaxsiy ma'lumot — bu sizning raqamli xavfsizligingizning eng muhim qismidir.

Firibgarlikni qanday aniqlash mumkin?

Firibgarlikning uchta asosiy belgisi bor.

1. Shoshiltirish

Firibgarlar ko'pincha:

"Darhol bosing", "15 daqiqa vaqtingiz bor", "aks holda yutuq yo'qoladi" kabi iboralar bilan sizni o'ylamasdan harakat qilishga majbur qiladi.

2. Qo'rqitish

"Akkauntingiz o'chiriladi", "jarima to'laysiz", "profiligiz bloklanadi" kabi gaplar vahima uyg'otish uchun ishlatiladi.

3. Haddan tashqari jozibali taklif

Hech qanday mehnatsiz katta pul, qimmatbaho sovg'a yoki yutuq va'da qilinsa, bunday taklifni albatta tekshirish kerak.

Qanday himoyalaniish mumkin?

Kiberxavfsizlikda “Himoya uchburchagi” degan tushuncha bor. U uchta asosiy qismdan iborat:

maxfiylik — shaxsiy ma'lumotlar begonalarga ochilmasligi;

butunlik — ma'lumotlar buzilmasligi yoki o'zgartirilmasligi;

foydalanish imkoniyati — akkaunt va fayllardan kerakli vaqtda foydalana olish.

Kundalik hayotda esa quyidagi uch qoidaga amal qilish muhim.

1. To'xtang

Shubhali xabar, havola yoki botga duch kelsangiz, shoshilmang. Avval vaziyatni xotirjam baholang.

2. Tekshiring

Axborotni rasmiy manbadan aniqlashtiring. Noma'lum havolalarni ochmang, shaxsiy ma'lumotlaringizni yubormang.

3. Murojaat qiling

Agar vaziyat tushunarsiz bo'lsa, ota-onangiz, o'qituvchingiz yoki ishonchli katta yoshli inson bilan maslahat qiling.

Bu chaqimchilik emas. Bu — o'z xavfsizligingizni himoya qilishdir.

Xulosa

Internetdagi har bir taklif ham foydali bo'lavermaydi. Har bir havolaga bosishdan oldin o'ylang, manbani tekshiring va shubhali holatda yordam so'rang.

Xavfsizlik — internetdan qo'rqish emas, undan oqilona foydalanishdir.